Abdullatif



Abdullatif

(1423–1450)

(1449-1450)

Movarounnahrda 1449-1450 yillarda hukmronlik temuriy hukmdor. ***Ulug‘bek***ning o‘g‘li. ***Shohrux*** saroyida tarbiya olgan, harbiy yurishlarda qo‘shinning o‘ng qanotiga qo‘mondonlik qilgan. ***Gavharshod begim*** va tarxon amirlar ***Shohrux*** o‘limidan so‘ng (1447) Abdulatifni oliy bosh qo‘mondonlikka tayinlab, uning amakivachchasi ***Alouddavla***ni taxtga o‘tqazishgan. Bu qarordan norozi bo‘lgan Abdulatif ***Alouddavla***ga qarshi urush ochgan, lekin Nishopur yaqinidagi jangda (1447) yengilib, hibsga olingan. ***Ulug‘bek*** farzandi hayotini saqlab qolish maqsadida ***Alouddavla*** bilan sulh tuzishga majbur bo‘lgan. Unga ko‘ra, ***Alouddavla*** Xuroson hukmdori deb tan olinib, Abdulatifga Balx ulusi berilgan. Abdulatif ***Ulug‘bek***ning 1448 yil ilk bahoridan yozigacha ***Alouddavla*** va ***Abulqosim Bobur***ga qarshi janglarida qatnashgan. So‘ng, toj-taxtni egallash maqsadida otasiga qarshi ***Abulqosim Bobur*** bilan ittifoq tuzgan. ***Ulug‘bek*** Abdulatifga qarshi qo‘shin tortgan va Amudaryo bo‘yida ikki tomon qo‘shini 3 oy muqobil turgan (1449). Samarqandda qolgan beklar isyoni tufayli ***Ulug‘bek*** poytaxtga qaytishga majbur bo‘lgan, natijada Abdulatif Amudaryodan o‘tib Termiz, Shahrisabzni egallagan. Samarqand yaqinidagi Damishq qishlog‘i yonida otasini yengib, taxtni egallagan (1449). Abdulatifning roziligi bilan ***Ulug‘bek*** va ukasi – ***Abdulaziz Mirzo*** qatl etilgan. Abdulatif olti oylik hukmronligidan so‘ng, ***Ulug‘bek***ning xos navkarlaridan ***Bobo Husayn*** bahodir tomonidan o‘ldirilgan (1450 yil 8-may). Abdulatif o‘jar, xudbin va shuhratparast bo‘lsada, otasi ***Ulug‘bek*** kabi ilm axliga ixlosmand edi. U o‘zi ham falakiyot va tarix ilmi bilan shug‘ullanar, she’rlar bitardi.

2023-10-30 00:08:16